

FOYDALANISH QO'LLANMASI

# HAVO KONDITSIONERI

Iltilmos, ushbu jihozni ishlatishdan avval qo'llanmani diqqat bilan o'qing va kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'ying.

TURI : DEVORGA O'RNATILADIGAN

Ushbu qurilma elektr va elektronika jihozlarda ma'lum xavfli moddalardan foydalanish bo'yicha cheklovlar bilan bog'liq texnik me'yorlar talablariga javob beradi.

## ENERGIYANI TEJASHGA OID MASLAHATLAR

Quyida konditsionerdan foydalanganingizda energiya iste'molini minimal darajada tejash bo'yicha ba'zi maslahatlar berilgan. Quyidagi ko'rsatmalarga amal qilgan holda konditsioneringizdan yanada samaraliroq foydalanishingiz mumkin:

- Xonani haddan ortiq sovutib yubormang. Bu sog'lig'ingizga zararli bo'lishi mumkin hamda ko'proq elektr quvvatini sarf qilishi mumkin.
- Havo konditrionerini ishlatayotganda, quyosh nurini jalyuza va pardalar bilan to'sing.
- Havo konditsionerini ishlatayotganda, eshik va derazalarni mahkam yopilgan holda ushlang.
- Xona havosi aylanishini ta'minlash uchun havo oqimini vertikal yoki gorizontal yo'nalishga to'g'rilang.
- Qisqa vaqt ichida xona havosini sovutich yoki isitish uchun ventilyator tezligini oshiring.
- Havo konditsioneri uzoq soatlab ishlatiladigan bo'lsa, xona havosi sifati buzilishi mumkin, shu bois, derazalarni ochib xonani muntazam shamollatib turing.
- Havo filtrini har 2 haftada bir marta tozalab turing. Havo filtrida yig'ilib qolgan chang va kir havo oqimini to'sib sovutish / namsizlantirish funksiyasini zaiflashtirishi mumkin.

### Qaydlar uchun

Xarid sanasini tasdiqlash zarur bo'lganda yoki kafolat maqsadlarida xarid chekini shu yerga tikib qo'ying. Model va seriya raqamini bu yerga yozing:

Model raqami: \_\_\_\_\_

Seriya raqami: \_\_\_\_\_

Ularni har bir konditsioner blokining yon tomonida joylashgan yoriqlarda topishingiz mumkin.

Diler nomi: \_\_\_\_\_

Xarid sanasi: \_\_\_\_\_

# MUHIM XAVFSIZLIK YO'RIQLARI

## **JIHOZDAN FOYDALANISHDAN OLDIN BARCHA KO'RSATMALARNI O'QIB CHIHING.**

Jihozning yaxshi ishlashini ta'minlash hamda xavfli vaziyatlarni oldini olish uchun doimo quyidagi xavfsizlik choralariga amal qiling.

### **OGOHLANTIRISH**

Ko'rsatmalarga amal qilinmasa, jiddiy jarohatga yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

### **DIQQAT**

Ko'rsatmalarga amal qilinmasa, mayda jarohatga yoki mahsulot buzilishiga sabab bo'lishi mumkin

### **OGOHLANTIRISH**

- Mutaxassis bo'lmagan shaxslar tomonidan bajarilgan o'rnatish yoki ta'mirlash ishlari sizga va boshqalarga zarar yetkazishi mumkin.
- Mutaxassis bo'lmagan shaxslar tomonidan bajarilgan o'rnatish yoki ta'mirlash ishlari sizga va boshqalarga zarar yetkazishi mumkin.
- Agar elektr quvvati shnurga shikast yetgan bo'lsa, xavfli holatlardan saqlanish uchun shnur ishlab chiqaruvchi, uning xizmat ko'rsatuvchi agenti yoki shunga o'xshash malakali mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi lozim.
- Qo'llanmadagi ma'lumotlar xavfsizlik qoidalariga bilan tanish va tegishli asboblarga va tekshirish moslamalariga ega malakali xizmat ko'rsatish ustasi foydalanishi uchun mo'ljallangan.
- Ushbu qo'llanmadagi ko'rsatmalarni diqqat bilan o'qib chiqmaslik va ularga amal qilmaslik qurilmaning noto'g'ri ishlashiga, moddiy zarar, tan jarohatiga va/yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.
- Konditsionerni jismoniy, sezish yoki aqliy qobiliyati cheklangan insonlar (jumladan bolalar ham) yoki tegishli tajribaga ega bo'lmagan insonlar ishlatishi ko'zda tutilmaydi, ammo mabodo, yuqorida aytilgan insonlar konditsionerni ishlatadigan bo'lsa, ularning xavfsizligi uchun javobgar bo'lgan shaxsning nazorati ostida yoki uning konditsionerdan foydalanishga oid yo'l-yo'riqlari asosida ishlatishlari lozim.
- Bolalarning konditsioner bilan o'ynamasliklarini ta'minlash uchun ularga ko'z-quloq bo'lish lozim.
- Elektr quvvat simini almashtirish kerak bo'lganda, sim vakolatli texnik mutaxassis tomonidan faqatgina original ehtiyot qismga almashtirilishi lozim.

### **O'rnatish**

- Havo konditsionerining nominal kuchlanishiga muvofiq standart avtomat va predoxraniteldan foydalaning. Aks holda, bu elektr toki urishiga yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Konditsionerni o'rnatganingizda yoki joyini o'zgartirganingizda vakolatli xizmat markaziga murojaat qiling. Aks holda, bu jiddiy jarohat yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Doimo yerga ulangan vilka va rozetkadan foydalaning. Aks holda, bu elektr toki urishiga yoki jihozda nosozlikka sabab bo'lishi mumkin
- Boshqarish qutisi paneli va qopqog'ini xavfsiz qilib bilan o'rnatish. Aks holda, bu portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Havo konditsionerini ishlatishdan oldin alohida elektr rozetkasi hamda ajratuvchi avtomatdan foydalaning. Aks holda, bu elektr toki urishiga yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Havo konditsionerining nominal kuchlanishiga muvofiq standart avtomat va predoxraniteldan foydalaning. Aks holda, bu elektr toki urishiga yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Quvvat simini o'zgartirmang yoki uzaytirmang. Elektr tarmog'iga ulash kabeli qirilgan yoki izolyatsiyasi ochilib qolgan bo'lsa yoki yomon holatga kelib qolgan bo'lsa, u yangisi bilan almashtirilishi kerak. U yong'in

yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

- Havo konditsionerini o'ramdan chiqarayotganda yoki o'rnatayotganda ehtiyot bo'ling. Aks holda, bu jiddiy jarohat yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Konditsionerni o'rnatganingizda yoki joyini o'zgartirganingizda vakolatli xizmat markaziga murojaat qiling. Aks holda, bu jiddiy jarohat yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Havo konditsionerini barqaror bo'lmagan yoki qulab tushishi mumkin bo'lgan joylarda o'rnatmang. U o'lim, jiddiy jarohat yoki mahsulot buzilishiga olib kelishi mumkin.

## Ishlatish

- Namlik juda yuqori bo'lganda yoki eshik yoki deraza ochiq qolganida havo konditsionerini uzoq vaqt ishlatib qo'ymang. Aks holda, bu jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Havo konditsioneri ishlab turganida, elektr kabeli tortilib qolmagan yoki shikastlanmaganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, bu yong'in chiqishiga, elektr toki urishiga yoki mahsulotda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Elektr kabeli ustida hech narsa qo'ymang. Bu elektr toki urishi va jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Havo konditsionerini elektr quvvati vilkasini rozetkaga tuqib yoki chiqarib yoqmang va o'chirmang. U yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Jihozga nam qo'l bilan tegmang, ishlatmang yoki uni ta'mirlamang. Bu elektr toki urishi va jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Elektr tarmog'iga ulash kabeli yaqiniga isitigich yoki boshqa isitish qurilmalarini joylashtirmang. U yong'in, elektr toki urishi yoki mahsulotda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Havo konditsioneri ichiga suv kirib ketishiga yo'l qo'ymang. U portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Havo konditsioneri yoniga benzin, benzol yoki eritgich kabi yonuvchan moddalarni qoldirmang. U portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Havo konditsionerini kichik, havo almashmaydigan joyda uzoq muddat ishlatmang. O'sha joyni muntazam shamollatib turing. Aks holda, bu portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Gaz sizib chiqqan holatlarda, havo konditsionerini ishlatishdan oldin xonani yaxshilab shamollatib yuboring. Aks holda, bu portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Havo konditsioneridan shovqin, xid yoki tutun chiqsa, uning quvvat simini darrov rozetkadan uzing. Aks holda, bu portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Bo'ron yoki dovul paytida foydalanishni to'xtating va derazani yoping. Iloji bo'lsa, dovul yetib kelmasidan avval jihozni derazadan yechib oling.
- Old panjarani ochgandan so'ng elektrostatik filtrga tegmang. Aks holda, bu elektr toki urishiga yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Suv toshqini natijasida havo konditsioneri suvga botsa, rasmiy xizmat markaziga murojaat qiling. Aks holda, bu portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Jihoz ichiga suv kirishidan ehtiyot bo'ling.
- Havo konditsioneri isitgich kabi boshqa isitish qurilmalari bilan bir vaqtda foydalanilsa, xonani yetarlicha shamollatib turing. Aks holda, bu yong'in, jiddiy jarohat yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Jihozni tozalaganingizda yoki tuzatganingizda, quvvatni o'chiring yoki vilkani rozetkadan ajrating. Aks holda, bu o'lim, jiddiy jarohat yoki jihozda nosozlikka sabab bolishi mumkin.
- Havo konditsioneri uzoq muddat davomida ishlatilmasa, vilkani rozetkadan ajrating. Aks holda, bu jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Havo konditsioneri ustiga hech narsa qo'ymang. Bu jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.



## OGOHLANTIRISH

- Ichki qismini tozalash uchun rasmiy xizmat markazi yoki dilerga murojaat qiling. Blokning korroziyasiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan qattiq tozalovchi vozitalardan foydalanmang. Qattiq tozalovchi vositalar, shuningdek, jihozda nosozlik, yong'in yoki elektr toki urishiga sabab bo'lishi mumkin.

## **DIQQAT**

### O'rnatish

- Havo konditsionerini o'rnatganingizdan yoki tuzatganingizdan so'ng, sovutish agenti sizib chiqmayotganligini tekshiring. Aks holda, bu jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Kondensatsiyalangan suvning bir tekisda chiqarib to'kilishini ta'minlash uchun drenaj shlangini to'g'ri o'rnatish. Aks holda, bu jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Jihozni o'rnatish jarayonida jihozning tekisligini ta'minlangan.
- Havo konditsionerini shunday joyga o'rnatish, tashqi blokidan chiqadigan shovqin va chiquvchi gaz qo'shnilaringizga noqulaylik yaratmasin. Aks holda, bu qo'shnilaringiz bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Jihozni tashish vaqtida, uni 2 yoki undan ko'proq kishi yoki sanchqisimon yukortgichda tashish. Bu jiddiy jarohat yetkazishi mumkin.
- Havo konditsionerini bevosita dengiz shamoli (tuzli shamol) urib turadigan joyga o'rnatmang. Bu jihozda nosozlik kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

### Ishlatish

- Odamlar, hayvonlar yoki o'simliklarni havo konditsionerining issiq yoki sovuq shamoli oqimi ostiga qo'ymang. Bu jiddiy jarohat yetkazishi mumkin.
- Jihozdan boshqa maqsadda, jumladan, oziq-ovqatlar, san'at asarlari va hokazolarni saqlash uchun foydalanmang. Jihoz sovutgich sifatida emas, konditsioner sifatida foydalanilsin. Aks holda, bu o'limga, yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Havo yo'nalishining kirish va chiqish teshiklari to'sib qo'ymang. Bu portlash yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Havo konditsionerini tozalaganingizda, kuchli tozalash vositalarini yoki eritgichlardan foydalanmang yoki jihozga suv sepmang. Yumshoq matodan foydalaning. Aks holda, bu jiddiy jarohat yetishi yoki jihozda nosozlik olib kelishi mumkin.
- Havo filtrini olayotganda, hech qachon metal qismlariga tegmang. Aks holda, bu jiddiy jarohat yetishi yoki jihozda nosozlik olib kelishi mumkin.
- Havo konditsioneri ustiga hech narsa qo'ymang. Bu jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Tozalagandan keyin filtrni doimo mustahkam o'rnatish. Filtrni har ikki haftada bir marta yoki, zarur bo'lsa, undan ko'proq marotaba tozalang.
- Havo konditsioneri ishlab turgan vaqtda, qo'lingizni yoki boshqa narsalarni havo kirish yoki chiqish teshiklariga tiqmang. Bu elektr toki urishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Havo konditsioneridan chiqadigan suvni ichmang. U sog'lig'ingizga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.
- Baland joyda turgan holda havo konditsionerini tozalaganingizda, xizmat ko'rsatganingizda yoki tuzatganingizda, mustahkam stol yoki narvondan foydalaning. Aks holda, bu jiddiy jarohat yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Masofa pultining batareyalarini boshqa turdagi batareyalar bilan yoki yangi batareyalarni eskilari bilan bir aralashtirmang. Aks holda, bu jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Batareyalarni zaryadlamang yoki qismlarga ajratmang. Aks holda, bu portlash, yong'in yoki jiddiy jarohatga olib kelishi mumkin.
- Batareya suyuqligi sizib chiqsa, masofa pultidan foydalanmang. Agar batareyadan sizib chiqqan suyuqlik kiyimingiz yoki teringizga tegsa, uni toza suv bilan yuvib tashlang. Aks holda, bu jiddiy jarohatga olib kelishi mumkin.
- Agar batareyadan sizib chiqqan suyuqlik og'zingizga kirsang, og'zingizni suv bilan yaxshilab chayib yuboring va shifokorga murojaat qiling. Aks holda, bu sog'lig'ingizga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

# MUNDARIJA

## 2 ENERGIYANI TEJASHGA OID MASLAHATLAR

---

## 3 MUHIM XAVFSIZLIK YO'RIQLARI

---

## 7 ISHLATISHDAN OLDIN

---

- 7 Tarkibiy qismlar
- 8 Masofa pultidan foydalanish
- 9 - Batareyalarni joylashtirish
- 9 - Masofa pultining ushlagichini o'rnatish

## 10 ASOSIY FUNKSIYALAR

---

- 10 Xonani sovutish
- 10 Xonani isitish
- 10 Namlikni ketkazish
- 11 Xona havosini aylantirish
- 11 Ventilyator tezligini sozlash
- 11 Havo oqimining yo'nalishini sozlash
- 11 Taymerni o'rnatish
- 11 - Joriy vaqttni o'rnatish
- 12 - Belgilangan vaqtda havo konditsionerini avtomatik tarzda ishga tushirish
- 12 - Belgilangan vaqtda havo konditsionerini avtomatik tarzda o'chirish
- 12 - Taymerni bekor qilish
- 12 Uyqu rejimini o'rnatish

## 13 KENGAYTIRILGAN FUNKSIYALAR

---

- 13 Xona haroratini tez o'zgartirish
- 13 Xona havosini tozalash
- 13 - Avtomatik tozalash
- 14 Plazmali tozalash
- 14 Avtomatik ishlatish
- 15 Avtomatik o'zgartirish
- 15 Energiya tejovchi sovutish rejimi
- 15 Display ekrani yorqinligi
- 16 Havo konditsionerini masofa pultisiz ishlatish
- 16 Havo konditsionerini avtomatik tarzda qayta ishga tushirish

## 17 XIZMAT KO'RSATISH

---

- 18 Havo filtrini tozalash
- 18 Allergiyaga qarshi va uchtalik filtrni tozalash
- 18 Plazma (+HAF) filtrni tozalash (ixtiyoriy)

## 19 NOSOZLIKLARNI BARTARAF QILISH


---

- 19 O'z-o'zini diagnostika qilish funksiyasi
- 19 Xizmat ko'rsatish murojaatini qilishdan oldin

# ISHLATISHDAN OLDIN

## Tarkibiy qismlar

### Ichki blok




\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.



### IZOH

Ishlash chiroqlari va ularning joylashuvlari havo konditsionerining modeliga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

### Tashqi blok



\* Model turiga ko'ra xususiyat o'zgartirilishi mumkin.

## Ish harorati diapazonlari

Quyidagi jadvalda konditsioner ishlashi mumkin bo'lgan harorat diapazonlari ko'rsatilgan.


| Rejim    | Xona harorati | Tashqaridagi harorat |
|----------|---------------|----------------------|
| Sovutish | 18°C~32°C     | 18°C~48°C            |
| Isitish  | 16°C~30°C     | -5°C~24°C            |

## Masofa pultidan foydalanish

Havo konditsionerini masofa pulti bilan yanada qulayroq ishlatishingiz mumkin.

Qo'shimcha funksiyalar uchun tugmalarni pult qopqog'ining ostidan topishingiz mumkin.

### Simsiz masofa pulti



Display  
ekrani

Boshqaruv  
paneli

| Boshqaruv paneli | Display ekranini | Tavsifi                                                                                                                                                                                                           |
|------------------|------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                  |                  | <b>Plazma tugmasi*:</b> Ichki blokka kiradigan mayda zarrachalarni olib tashlash orqali havoni tozalaydi.                                                                                                         |
|                  |                  | <b>Avtomatik uyqu rejimi tugmasi*:</b> Avtomatik uyqu rejimini o'rnatadi.                                                                                                                                         |
|                  |                  | <b>Haroratni sozlash tugmasi:</b> Sovutish yoki isitish rejimlarida, xona haroratini sozlaydi.                                                                                                                    |
|                  | -                | <b>Yoqish/o'chirish tugmasi:</b> Quvvatni yoqadi/o'chiradi.                                                                                                                                                       |
|                  |                  | <b>Ichki blok ventilyator tezligi tugmasi:</b> Ventilyator tezligini sozlaydi.                                                                                                                                    |
|                  |                  | <b>Ish rejimini tanlash tugmasi*:</b> Ish rejimini tanlaydi.<br>Sovutish (❄️) / avtomatik ishlatish yoki avtomatik o'zgartirish (⚙️) / namsizlantirish (☀️) / isitish (🔥) / havoni sirkulyatsiyalash (🌀)          |
|                  |                  | <b>Tez sovutish/isitish tugmasi*:</b> Xona haroratini qisqa vaqt ichida sovutadi yoki isitadi.                                                                                                                    |
|                  |                  | <b>Havo oqimi yo'nalishi tugmasi:</b> Havo oqimi yo'nalishini vertikal yoki gorizontal holatga sozlaydi.                                                                                                          |
|                  |                  | <b>Haroratni ko'rsatish tugmasi:</b> Xona haroratini ko'rsatadi. Agar 5 soniya davomida bosib turilsa, harorat birligini °C dan °F ga o'gartiradi.                                                                |
|                  |                  | <b>Taymer tugmasi:</b> Joriy vaqt va ishga tushirish/to'xtatish vaqtini o'rnatadi.                                                                                                                                |
|                  |                  | <b>Navigatsiya va funksiyalar tugmasi*:</b> Vaqtni sozlaydi va alohida funksiyalarni o'rnatadi.<br>⏸️: Avtomatik tozalash / ⏸️: Energiyani tejagan holda sovutadi / ⏸️: Ichki blok displeyi yorqinligini sozlaydi |
|                  | -                | <b>O'rnatish/bekor qilish tugmasi:</b> Funksiyalarni o'rnatadi yoki bekor qiladi.                                                                                                                                 |
|                  | -                | <b>Nolga qaytarish tugmasi:</b> Konditsiner parametrlarini nolga qaytaradi.                                                                                                                                       |


\* Modelga qarab ba'zi funksiyalar qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.




## Batareyalarni joylashtirish

Masofa pultidan foydalanishdan oldin batareyalarni joylashtiring. Foydalaniladigan batareya turi AAA (1,5 V).

1 Batareya qopqog'ini oling.



2 Yangi batareyalarni joylashtiring va batareyalarning + hamda – tomonlari to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.



3 Batareya qopqog'ini yoping.

### ! IZOH


Agar masofa pultining ekrani xiralasha boshlasa, batareyalarni almashtiring.

## Masofa pultining ushlagichini o'rnatish


Masofa pultini himoyalash uchun uning ushlagichini quyosh nuri tushmaydigan joyga o'rnatish.

1 Xavfsiz va olish qulay bo'lgan joyni tanlang.

2 Ushlagichni o'tvertka bilan 2 shurupga mahkam qotiring.




3 Masofa pultini ushlagich ichiga joylashtiring.



## Ishlatish usuli

Masofa pultini ishlatish uchun uni konditsioner ostidagi signal qabul qiluvchi datchikka to'g'ri-lang.



### ! IZOH


- Masofa pulti, agar boshqa elektronika qurilmalariga qaratilsa ham, ularni boshqarishi mumkin. Masofa pultini havo konditsionerining signal qabul qiluvchi datchigiga qaratganligingizga ishonch hosil qiling.
- Yaxshi ishlashi uchun signal uzatuvchi hamda signal qabul qiluvchi datchikni yumshoq mato bilan arting.

# ASOSIY FUNKSIYALAR

## Xonani sovutish

### (Sovutish rejimi)

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2 Sovutish operatsiyasini tanlash uchun  ni takror bosing.  
- Display ekranida  aks etadi.




- 3 Kerakli haroratni o'rnatish uchun  yoki  ni bosing.  
- Harorat diapazoni 18°C - 30°C.

## Xonani isitish

### (Isitish rejimi)

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2 Isitish rejimini tanlash uchun  ni takror bosing.  
- Display ekranida  aks etadi.



- 3 Kerakli haroratni o'rnatish uchun  yoki  ni bosing.  
- Harorat diapazoni 16°C - 30°C

### ! IZOH


Faqat sovutish rejimlarida ishlovchi model-lar ushbu funksiyani qo'llab-quvvatlamaydi.

## Namlikni ketchazish

### (Namsizlantirish rejimi)

Ushbu rejim yuqori namlik muhitida yoki yomg'irli mavsumda mog'orlanishning oldini olish maqsadida ortiqcha namlikni ketchazadi. Ushbu rejim namlikning optimal darajasini saqlash uchun xona harorati va ventilyator tezligini avtomatik tarzda sozlaydi.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2 Namsizlantirish operatsiyasini tanlash uchun  ni takror bosing.  
- Display ekranida  aks etadi.




### ! IZOH

- Ushbu rejimda xona haroratini sozlay ol-maysiz, chunki harorat avtomatik tarzda sozlanadi. Shuningdek, xona harorati display ekranida ham aks etmaydi.

## Xona havosini aylantirish (Havoni aylantirish operatsiyasi)

Ushbu rejim xona haroratini o'zgartirmasdan, faqat xona havosini o'zini sirkulyatsiya qiladi. Havoni sirkulyatsiyalash rejimida sovutish chirog'i yonadi.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosib.
- 2 Havo sirkulyatsiyasi rejimini tanlash uchun  tugmasini qayta-qayta bosib.  
- Display ekranida  aks etadi.



- 3 Ventilyator tezligini sozlash uchun  ni bosib.

## Ventilyator tezligini sozlash

- 1 Ventilyator tezligini sozlash uchun  ni takror bosib.  
- Tabiiy havoni xohlasangiz,  ni tanlang. Ventilyator tezligi avtomatik tarzda sozlanadi.

## Havo oqimining yo'nalishini sozlash

- 1 Havo yo'nalishini vertikal yo'nalishga sozlash uchun  ni takror bosib va kerakli yo'nalishni tanlang.  
- Havo oqimi yo'nalishini avtomatik sozlash uchun  ni tanlang.
- 2 Havo oqimi yo'nalishini gorizontal yo'nalishga sozlash uchun  ni takror bosib va kerakli yo'nalishni tanlang.  
- Havo oqimi yo'nalishini avtomatik sozlash uchun  ni tanlang.

### ! IZOH


- Model turiga qarab vertikal yoki gorizontal havo oqimi yo'nalishiga sozlash qo'llab quvvatlanmasligi mumkin.
- Havo deflektorini ko'r-ko'rona sozlash jihatida nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Agar havo konditsionerini qayta ishga tushirsangiz, u avvalgi o'rnatilgan havo yo'nalishi bilan ishga tushadi, shu bois, havo deflektori pultda aks etgan ikonachaga mos bo'lmisligi mumkin. Shunday holat yuz bersa, havo yo'nalishini qaytadan sozlash uchun  yoki  ni bosib.

## Taymerni o'rnatish

Energiyani tejash va havo konditsionerini yana samarali ishlatish uchun taymer funksiyasidan foydalanishingiz mumkin.

### Joriy vaqtni o'rnatish


- 1 3 soniyadan uzoqroq vaqt davomida  ni bosib turing.  
- Display ekranida Erta/Kech ikonachasi yonib o'chadi.



- 2 Minutni tanlash uchun  yoki  ni bosib.
- 3 Yakunlash uchun  ni bosib.

### Belgilangan vaqtda havo konditsionerini avtomatik tarzda ishga tushirish


- 1  ni bosing.  
- Display ekranini pastida quyidagi ikonacha yonib o'chadi.



- 2 Minutni tanlash uchun  yoki  ni bosing.
- 3 Yakunlash uchun  ni bosing.

### Belgilangan vaqtda havo konditsionerini avtomatik tarzda o'chirish

- 1  ni bosing.  
- Display ekranini pastida quyidagi ikonacha yonib o'chadi.



- 2 Minutni tanlash uchun  yoki  ni bosing.
- 3 Yakunlash uchun  ni bosing.


### Taymerni bekor qilish

- 1  ni bosing.
- 2 Bekor qilinadigan taymer sozlamasini tanlash uchun  yoki  ni bosing.
- 3  ni bosing.  
- Barcha taymer sozlamalarini bekor qilish uchun  ni bosing.

### Uyqu rejimini o'rnatish

Uyquga ketganingizda, havo konditsioneri avtomatik tarzda o'chishi uchun uyqu rejimidan foydalaning.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2  ni bosing.
- 3 Soatni (7 soatgacha) tanlash uchun  yoki  ni bosing.
- 4 Yakunlash uchun  ni bosing.  
- Uyqu rejimida display ekranida  aks etadi.



### ! IZOH

Sovutish va namsizlantirish rejimlarida uxlash uchun qulaylik yaratish maqsadida 30 daqiqadan so'ng harorat 1°C darajaga ko'tariladi va keyingi 30 daqiqadan so'ng, yana 1°C darajaga ko'tariladi.

Harorat belgilangan haroratdan 2°C darajagacha oshadi.

# KENGAYTIRILGAN FUNKSIYALAR


Havo konditsioneri ba'zi qo'shimcha kengaytirilgan funksiyalariga ega.

## Xona haroratini tez o'zgartirish

### (Tez sovutish/isitish operatsiyasi)

Ushbu rejim yozda xonani tez sovutish yoki qishda tez isitish imkonini beradi.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2  ni bosing.



- Tez sovutish rejimida, 18°C haroratda 30 daqiqa davomida kuchli havo oqimi esadi.
- Tez isitish rejimida, 30°C haroratda 30 daqiqa davomida kuchli havo oqimi esadi.

### ! IZOH


- Havoni sirkulyatsiyalash, avtomatik ishga tushirish yoki avtomatik o'zgartirish rejimida ushbu funksiyadan foydalanib bo'lmaydi.
- Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

## Xona havosini tozalash

### Avtomatik tozalash

Sovutish va namsizlantirish rejimlarida ichki blok ichida namlik hosil bo'ladi. Ushbu namlikni yo'qotish uchun avtomatik tozalash funksiyasidan foydalaning.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2  ni bosing.  
- Display ekranida  aks etadi.



- Agar quvvatni o'chirsangiz, ventilyator 30 daqiqa davomida ishlab, ichki blok ichini tozalaydi.


### ! IZOH

Avtomatik tozalash funksiyasi ishlayotgan paytda, ba'zi tugmalar ishlamasligi mumkin.

## Plazmali tozalash

LG kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan plazmali filtr kirayotgan havodagi mayda zararcha ifloslarni tozalab, toza va sof havo yetkazib beradi.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2  ni bosing.  
- Display ekranida  aks etadi.



### ! IZOH

- Ushbu funksiyadan havo konditsionerini yoqmasdan turib,  ni bosgan holda foydalanishingiz mumkin.
- Plazmali tozalash jarayonida ham plazma chirog'i, ham sovutish chirog'i yonib turadi.
- Ushbu funktsiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.


## Avtomatik ishlatish

### (Sun'iy intellekt)

#### Faqat sovutish modellari

Ushbu rejimda ventilyator tezligi va harorat xona haroratiga qarab avtomatik tarzda sozlanadi.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2 Avtomatik ishlash rejimini tanlash uchun  ni takror bosing.
- 3 Harorat kerakli haroratdan yuqoriroq yoki pastroq bo'lsa, kerakli ish kodini tanlash uchun  yoki  ni bosing.



| Kod | Tavsifi                       |
|-----|-------------------------------|
| 2   | Sovutish                      |
| 1   | Yengil sovutish               |
| 0   | Xona haroratini ushlab turish |
| -1  | Yengil isitish                |
| -2  | Isitish                       |


### ! IZOH

- Ushbu rejimda ventilyator tezligini sozlay olmaysiz, biroq havo deflektorini avtomatik aylanishga o'rnatishingiz mumkin.
- Ushbu funktsiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

## Avtomatik o'zgartirish

Ushbu rejim belgilangan haroratni  $\pm 2^{\circ}\text{C}$ da saqlash uchun ish rejimini avtomatik tarzda o'zgartiradi.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2 Avto o'zgarishni tanlash uchun  ni takror bosing.  
- Display ekranida  aks etadi.



- 3 Kerakli haroratni o'rnatish uchun  yoki  ni bosing.  
- Harorat diapazoni  $18^{\circ}\text{C} - 30^{\circ}\text{C}$ .
- 4 Ventilator tezligini sozlash uchun  ni takror bosing.


### ! IZOH

Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

## Energiya tejovchi sovutish rejimi

Ushbu rejim sovutish paytida energiya sarfini minimallashtiradi va yanada qulayroq havo muhitini ta'minlash uchun belgilangan haroratni optimal darajaga oshiradi.

- 1 Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
- 2 Sovutish operatsiyasini tanlash uchun  ni takror bosing.
- 3  ni bosing.  
- Display ekranida  aks etadi.



### ! IZOH

Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

## Display ekrani yorqinligi

Ichki blok displeyi ekranining yorqinligini sozlashingiz mumkin.

- 1 Yorqinlikni kerakli darajada o'rnatish uchun  ni takror bosing.

### ! IZOH


Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

## Havo konditsionerini masofa pultsiz ishlatish

Masofa pulti bo'lmasa, havo konditsionerining ichki blokini ishlatish uchun yoqish/o'chirish tugmasidan foydalanishingiz mumkin. Biroq ventilyator tezligi yuqori tezlikka o'rnatilgan bo'ladi.


### 1 Old qopqog'ini oching.

- Qopqoqni ikki yon tomonidan ushlab ohista ko'taring.



\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

### 2 Yoqish/o'chirish tugmasini bosib.



\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

- Sovutish va isitish modellarida, ish rejimi xona haroratiga qarab o'zgaradi.

| Xona harorati.                               | O'rnatilgan harorat | Ish rejimi                   |
|----------------------------------------------|---------------------|------------------------------|
| 21°C darajadan past                          | 24°C                | Isitish operatsiyasi         |
| 21°C darajadan yuqori va 24°C darajadan past | 23°C                | Namsizlantirish operatsiyasi |
| 24°C darajadan yuqori                        | 22°C                | Sovutish operatsiyasi        |

- Faqat sovutish modellarida, harorat 22°C (71,6°F) darajaga o'rnatilgan.


## Havo konditsionerini avtomatik tarzda qayta ishga tushirish

Elektr toki ta'minoti o'chishidan so'ng havo konditsioneri qaytadan yoqilsa, bu funktsiya avvalgi sozlamalarini tiklaydi. Ushbu funktsiya zavodning sukut bo'yicha sozlamasidir.

### Avtomatik qayta ishga tushishni o'chirib qo'yish

### 1 Old qopqog'ini oching.


- Qopqoqni ikki yon tomonidan ushlab ohista ko'taring.



\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

### 2 Yoqish/o'chirish tugmasini bosib va 6 soniya davomida bosgan holda ushlab turing.

- Jihoz ikki marta signal chaladi va chirog'ni 6 marta yonib o'chadi.



\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

- Funktsiyani qayta ishga tushirish uchun yoqish/o'chirish tugmasini bosib va 6 soniya davomida ushlab turing. Jihoz ikki marta signal chaladi va ko'k chiroq 4 marta yonib o'chadi.

### ! IZOH

Agar yoqish/o'chirish tugmasini 6 soniya o'rniga 3 – 5 soniya davomida bosib ushlab tursangiz, jihoz sinov ishlatish rejimiga o'tadi. Sinov ishlatish rejimida, sovutish uchun blok 18 daqiqa davomida kuchli havo oqimi chiqaradi, so'ngra, zavodning sukut bo'yicha sozlamalariga avtomatik tarzda qaytadi.




## XIZMAT KO'RSATISH

Jihozning optimal ishlashini ta'minlash va ehtimoliy buzilishning oldini olish maqsadida jihozni muntazam tozalab turing.

\* Bu modelga qarab berilmasligi mumkin.

Allergiyaga qarshi filtr + uchtalik filtr



Plazma (+HAF) filtr  
(ixtiyoriy)

Havo filtri

\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

| Qism                                      | Tozalash vaqt oralig'i | Tozalash usuli                                                                                                                                |
|-------------------------------------------|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Havo filtri                               | 2 hafta                | "Havo filtrini tozalash"ga qarang. See "Cleaning air filter."                                                                                 |
| Allergiyaga qarshi filtr / uchtalik filtr | 3 oy                   | "Allergiyaga qarshi filtr va uchtalik filtrni tozalash"ga qarang.                                                                             |
| Plazma (+HAF) filtr*                      | 3 oy                   | "Plazma (+HAF) filtrni tozalash"ga qarang.                                                                                                    |
| Ichki blok yuzasi                         | Muntazam               | Yumshoq, quruq matodan foydalaning. Abrzivlar yoki oqartiruvchi vositalardan foydalanmang.                                                    |
| Tashqi blok                               | Muntazam               | Iссиqlik almashinuvi qurilmasining burama naychalari va panel parraklarini tozalash uchun bug'dan foydalaning (texnik bilan maslahatlashing). |

### ⚠️ DIQQAT

- Biron bir xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun avval quvvatni o'chiring va vilkasini rozetkadan chiqaring; aks holda, elektr toki urishi mumkin.
- Filtrlarni tozalayotganda, 40°C darajadan issiqroq bo'lgan suvdan aslo foydalanmang. Bu deformatsiya yoki rangning o'chishiga olib kelishi mumkin.
- Filtrlarni tozalaganda, uchuvchan moddalardan foydalanmang. Ular jihozning yuza qismini shikastlashi mumkin.


### ❗ IZOH

- Filtrlar joylashuvi va shakli modelga qarab turlicha bo'lishi mumkin.
- Tashqi blokning issiqlik almashinuvi qurilmasi burama naychalarini muntazam tozalab turishni unutmang, chunki unda yig'ilgan kirlar jihoz ishlash samaradorligini pasaytirib, energiya sarfini oshirishi mumkin.

## Havo filtrini tozalash


Havo filtrini har 2 hafta yoki, zarur bo'lganda, undan ko'proq marta tozalab turing.

- 1 Quvvatni o'chiring va elektr simini rozetkadan chiqaring.
- 2 Old qopqog'ini oching.
  - Qopqoqni ikki yon tomonidan ushlab ohista ko'taring.



\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

- 3 Havo filtrining ushlagichidan ushlab filtrni sekin ko'tarib, blokdan chiqarib oling.




\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

- 4 Filtrni changyutgich yoki iliq suv bilan tozalang.
  - Agar kirni tozalash qiyin bo'lsa, filtrni iliq suv va yuvish vositasi bilan tozalang.
- 5 Filtrni soyada quriting.

## Allergiyaga qarshi va uchtalik filtrni tozalash

- 1 Quvvatni o'chiring va elektr simini rozetkadan chiqaring.
- 2 Old panjarani oching va havo filtrini oling ("Havo filtrini tozalash"ga qarang).
- 3 Allergiyaga qarshi filtr va uchtalik filtrni tortib chiqarib oling.



\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.


- 4 Filtrni bevosita quyosh nurida 2 soat davomida quriting.

### ! IZOH

Filtrlar joylashuvi va shakli modelga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

## Plazma (+HAF) filtrni tozalash (ixtiyoriy)

- 1 Quvvatni o'chiring va elektr simini rozetkadan chiqaring.
- 2 Old panjarani oching va havo filtrini chiqaring ("Havo filtrini tozalash"ga qarang).
- 3 Plazma (+HAF) filtrni 10 soniyadan so'ng oling.



\* Bu qism model turiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

- 4 Kirini tozalash uchun changyutgichdan foydalaning.
  - Agar kirni tozalash qiyin bo'lsa, filtrni iliq suv va yuvish vositasi bilan tozalang.
- 5 Filtrni soyada quriting.

### ! IZOH

- Filtrlarning joylashuvi modelga qarab turlicha bo'lishi mumkin.
- Ba'zi modellarda plazmalı filtr bo'lmasligi mumkin.

# NOSOZLIKLARNI BARTARAF QILISH

## O'z-o'zini diagnostika qilish funksiyasi

Ushbu jihozda o'z-o'zini diagnostikalash funksiyasi o'rnatilgan. Agar xatolik yuz bersa, ichki blokning chirog'i 2 soniyalik vaqt intervali bilan yonib o'chadi. Agar shunday holat yuz bersa, mahalliy diler yoki xizmat markaziga murojaat qiling.

## Xizmat ko'rsatish murojaatini qilishdan oldin

Xizmat markaziga murojaat qilishdan oldin quyidagilarni tekshiring.  
Agar muammo bartaraf bo'lmasa, mahalliy xizmat markaziga murojaat qiling.

| Muammo                                                                                          | Mumkin bo'lgan sabablar                                         | Bartaraf etish                                                                                                                            |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Blokdan kuygan hid va g'alati ovoz chiqmoqda.                                                   | -                                                               | Havo konditsionerini o'chiring, rozetkadan chiqaring va xizmat markaziga murojaat qiling.                                                 |
| Namlik darajasi past bo'lishiga qaramasdan ichki blokdan suv oqib chiqmoqda.                    |                                                                 |                                                                                                                                           |
| Elektr kabeli shikastlangan yoki ortiqcha issiqlik hosil qil-yapti.                             |                                                                 |                                                                                                                                           |
| Uzib ulagich, zanjir uzgich (xavfsizlik, yerga ulash) yoki predoxranitel to'g'ri ishlama-yapti. |                                                                 |                                                                                                                                           |
| Havo konditsioneri ishlama-yapti.                                                               | Havo konditsioneri rozetkadan ajratilgan.                       | Elektr simining vilkasi rozetkaga tiqilganligini tekshiring.                                                                              |
|                                                                                                 | Predoxranitel kuygan yoki elektr toki ta'minoti to'silgan.      | Predoxranitelni almashtiring yoki zanjir uzgich kontaktini ajratib qo'ymaganligini tekshiring.                                            |
|                                                                                                 | Elektr toki ta'minoti uzilgan.                                  | Elektr toki ta'minoti o'chsa, havo konditsionerini o'chiring. Elektr toki kelganda, 3 daqiqa kuting, so'ngra havo konditsionerini yoqing. |
|                                                                                                 | Kuchlanish juda yuqori yoki juda past.                          | Zanjir uzgich zanjirni ajratib yubormaganligini tekshiring.                                                                               |
|                                                                                                 | Havo konditsioneri belgilangan vaqtda avtomatik tarzda o'chgan. | Quvvat tugmasini qaytadan bosong.                                                                                                         |

| Muammo                                       | Mumkin bo'lgan sabablar                                                             | Bartaraf etish                                                                                                                                                                 |
|----------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Havo konditsioneri sovuq havo chiqarmayapti. | Havo to'g'ri sirkulyatsiya bo'lmayapti                                              | Havo konditsionerining old qismini parda, jalyuza yoki mebel to'sib qo'ymaganligiga ishonch hosil qiling.                                                                      |
|                                              | Havo filtri kirlangan.                                                              | Havo filtrini har 2 haftada bir marta tozalab turing. Batafsil ma'lumot uchun "Havo filtrini tozalash"ga qarang.                                                               |
|                                              | Xona harorati juda yuqori.                                                          | Yoz paytida xonani sovutish uchun bir oz vaqt kerak bo'ladi. Bunday holatda xona havosini tez sovutish uchun tez sovutish rejimini tanlang.                                    |
|                                              | Sovuq havo xonadan chiqib ketmoqda.                                                 | Xonada sovuq havo chiqib ketadigan joylar bo'lmashligini ta'minlang.                                                                                                           |
|                                              | Kerakli harorat o'rnatilgan haroratdan yuqoriroq.                                   | Keraki haroratni joriy haroratdan bir daraja past qilib o'rning.                                                                                                               |
|                                              | Yaqin atrofda isituvchi manba bor.                                                  | Havo konditsioneri ishlab turganda, elektr pechkasi yoki gaz o'chog'i kabi issiqliq chiqaruvchi mosalamalar ishlamasligini ta'minlang.                                         |
|                                              | Havoni sirkulyatsiyalash rejimi tanlangan.                                          | Havoni sirkulyatsiyalash rejimida, havo konditsioneridan chiqqan havo xona haroratini sovutmaydi yoki isitmaydi. Ishlash rejimini sovutish rejimiga o'zgartiring.              |
| Ventilyator tezligini sozlab bo'lmayapti.    | Avtomatik ishlash, tez sovutish yoki isitish yoki namsizlantirish rejimi tanlangan. | Tez sovutish yoki isitish yoki namsizlantirish kabi ba'zi rejimlarda ventilyator tezligini sozlay olmaysiz. Ventilyator tezligini o'zgartirish mumkin bo'lgan rejimni tanlang. |
| Haroratni sozlab bo'lmayapti.                | Havoni sirkulyatsiyalash yoki tez sovutish yoki isitish rejimi tanlangan.           | Havoni sirkulyatsiyalash yoki tez sovutish yoki isitish kabi ba'zi rejimlarda haroratni sozlay olmaysiz. Haroratni sozlash mumkin bo'lgan rejimni tanlang.                     |

